ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti




13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari


№6(1)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 448 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR OʻRINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov Gʻ.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirgʻizboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qoʻldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozogʻiston)***
***Rejep Oʻzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – "Yangi Oʻzbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan jurnalist, filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Gʻafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari boʻyicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshligʻining birinchi oʻrinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar boʻlimining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor oʻgʻli – Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini ........ 10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarning oʻzini oʻzi anglashida muloqotning oʻrni ........ 14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa

Maktabgacha ta'lim tizimida sogʻlom turmush tarzi koʻnikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari ..... 17
Dilsora Shodmonova

Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях ........ 24
Истамова Нигора Азимжановна

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari........ 29
Saidova Nigora Olimovna, Gʻulomova Shaxnoza Abdusalom qizi

Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yoʻllari........ 32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich

Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari........ 36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul oʻgʻli

Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish........ 40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich

Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline ........ 44
Lola Mannobova

Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries ........ 48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining qobiliyat, qiziqish va oʻrganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejalari ........ 51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi

Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik koʻrinishlari ........ 55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi

Oʻyin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari boʻlgan bolalar ijtimoiy koʻnikmalarini rivojlantirishdagi oʻrni ........ 59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich

Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari ..... 64
Alimova Gulrux Farhod qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv oʻyin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari ........ 70
Axtamova Mohinur Oʻtkir qizi

Oilaviy zoʻravonlikka uchragan ayollarni qoʻllab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning oʻrni ......... 74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, Toʻlqinova Muxlisaxon Jamshid qizi

Oʻzbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) ........ 78
Gʻaybulloyeva Parvina Samandar qizi

Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogenezda shakllanishi ........ 82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi

Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi ........ 87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna

Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari ............................ 91
Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli ............ 95
Jamolova Farida Fatillo qizi

Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) ........................................................ 98
Jumagulova Gulziya Madiyarovna

Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish ........................................................................... 103
Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish ..................... 107
Maqsuda Maxsudovna Murodova

O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari ................................................................................ 113
Maxbuba Axatova

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .................................................. 116
Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar ....................... 120
Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... 123
Niyozova Maftuna Normaxmat qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.......................................................................................... 126
Norbo'tayeva Iroda Yunusovna

Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .................... 130
Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li

Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ................ 134
Nosirova Ra'no Xamidovna

Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni................. 137
Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli ................................................ 142
Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi

Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .................. 146
Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich

O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.................................................................................................. 149
Qurdasheva Bonu Bexzod qizi

Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .................................. 153
Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi

Musiqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.......................... 157
Raximova Dilbar Rizakulovna

Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida.. 161
Raximova Maryam O'tkir qizi

Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni.. 173
Alimova Nasiba Adxamovna

Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari................................ 179
Kurbonova Kamola Ilxomovna

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati ................................................................................................ 183
Mamadaliyeva Lola Shailyasovna

Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish ..................... 188
Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich

Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati...... 192
Samatov Javlonbek Abdukayumovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi ........ 195
Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna

Modern Teaching Methods in English Language Learning ........ 199
Sarvinoz Abdulhakimova

Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi ........ 202
Shahnoza Muhammadiyeva

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari ........ 205
Shopulatova Nasiba Umirovna

Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari ........ 208
Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid

Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ........ 211
Temirov Murodjon Anvarovich

The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students ........ 215
Toshmamatova Marjona Olimjon kizi

Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik ........ 220
Toshpo'latova Mahina Farxod qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 224
Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi

Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations ........ 228
Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi

Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications ........ 232
Veronica Khatamova

Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi ........ 236
Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi

Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida ........ 240
Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova

Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish ........ 246
Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi

The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation ........ 250
Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.

Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan ........ 254
Saytbekova Svetlana Saylaubaevna

Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish ........ 257
Xoldorova Mashxura G'ulomovna

Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari ........ 260
Xudaybergenova Zuxra Isakovna

Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari ........ 263
Yusupov Ma'mur Ma'rufovich

Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина ........ 269
Рахимова Шахзода Равшановна

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari ........ 273
Imamova Nasiba Xurramovna

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .................. 276
Xidirov Faxriddin Fozilovich

Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .................. 280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda leksik-grammatik komponentni diagnostika qilish metodlari .................. 284
Mamatkulova Lobar Tolibjonovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning ta'limiy faoliyatini rivojlantirish.................. 288
Norqulova Ma'mura Husniddin qizi

Nutqdagi fonetik kamchiliklarning o'quv faoliyati va savodxonlikka ta'siri .................. 293
Xikmatova Saboxat Xusniddinovna

Oliy ta'limda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish omillari .................. 296
Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi

Social-Psychological Factors of Increasing the Quality of Life .................. 300
Abdullaeva Ranazhon Matyakubovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari.................. 307
Abdumalikova Gulchiroy

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.................. 311
Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna

Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .................. 316
Azimova Maftuna Azizbekovna

Talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari .................. 321
Eshbekova Dilnoza Ibraimovna

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida moslashuvchanlikning psixologik xususiyatlari.................. 324
Fayziyeva Gulhayo Erkin qizi, Fatullayeva Manzura Idillo qizi

Naim Karimov talqinida Oybek badiiy tafakkurining biografik manbalari.................. 327
Jonpo'lotova Gulshoda Qobil qizi

Kurashchilarning kuch sifatini rivojlantirishda maxsus mashqlardan foydalanish .................. 334
Muxamedjanov Umidulla Fayzullayevich

Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy idealni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari .................. 337
Saidova Malika Erkin qizi

Yengil atletika texnikalarini pedagogik mahoratni rivojlantirish metodikalarida qo'llash .................. 340
Sattarov Qarshiboy Narqulovich, Mirzayev Karim Mamarasul o'g'li

Yengil atletika mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishning innovatsion metodikasi .................. 344
Sattorov Sardor Sunnatulloyevich

Innovatsion rivojlanish asosida uzluksiz ta'limning integratsiyalashgan mazmunini modellashtirish metodologiyasi.................. 348
Umarov Lutfillo Murodilloyevich

Milliy maktablarda rus tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslari va veb-saytlardan foydalanish metodikasi.... 352
Xolmirzayeva Munira Jahongir qizi

Педагогические основы повышения профессиональной компетентности будущих преподавателей физического воспитания высших образовательных учреждений .................. 357
Мавлянов Бахром Сангирович

Раннее выявление и мониторинг кожных заболеваний с помощью искусственного интеллекта: интегрированные архитектуры, алгоритмы и перспективы клинического внедрения .................. 361
Э. Ш. Назирова, Ш. Б. Абдусаломова

Ingliz tilida modallikni ifodalash vositalari va ularning semantik xususiyatlari .................. 368
Abdujalilova Sarvinoz Rashid qizi, Abdurazzokova Mehriniso Azimjon qizi

Ona va farzand munosabatlarida etnomadaniy omillarning psixologik xususiyatlari....373
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna

O'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'rni....378
Abdurahmanov Muhamadjon G'ulomjonovich

Aralash ta'lim texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini loyihalashning ilmiy-metodik asoslari....381
Alibayev Sobir Xolboyevich

Formativ baholash jarayonidan foydalanib o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish....386
Amirkulova Dilnoza Zokir qizi

Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy-pedagogi faoliyatga tayyorlash tendensiyalari....389
Artikbayeva Aziza Abror qizi

The Role of National Values in English and Uzbek Literature: a Comparative Study....392
Ataniyazova Sohiba Xamidovna

Frans Kafka ijodining psixologik talqini....396
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich

Development of a Set of Health-Promoting Exercises for Middle-Aged Men 50-60 Years Old, Taking Into Account Physical Training....400
Dehqonova Mahmuda Ortiqovna

Oliy ta'limda talabalarni jismoniy rivojlantirish metodikalari....404
Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich

Современные мобильные технологии: эволюция и развитие....408
Жураев Илхом Исхокович

Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni....413
Kamalova Dilobar Tairovna

Methodology for Developing Communicative Competence of Future Teachers Based on Multimedia Tools....418
Kudratova Sultonposhsha Otabek qizi, Khalilova Mukhlisa Ulug'bek qizi, Ziyotova Umida Otabek qizi

Raqamli ta'lim muhitida ona tili darslarida matn bilan ishlashni tashkil etish....423
Erdanova Zamira Olimovna

Milliy sport turlari orqali talaba yoshlar bilan interfaol dars jarayonini tashkil etish....426
Mirzayev Az'am Xudaynazarovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich

Pedagogika bitiruvchilarining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishga asoslangan barqaror bandligini ta'minlash modeli....430
Omonova Mohiniso Maqsud qizi

Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani sun'iy intellekt asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari....435
Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'g'li

Boshlang'ich ta'limda web-kvest topshiriqlardan foydalanish....440
Saidova Gavhar Ergashovna, Itolmasova Oygul Sabritdinovna

Developing Communicative Competence in English Language Education Through Modern Interactive Methods....443
Sativoldieva Shoxsanam Utkir qizi

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

# FRANS KAFKA IJODINING PSIXOLOGIK TALQINI

Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XX asrning mashhur nemis yozuvchisi Frans Kafka ijodining psixologik va psixolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda yozuvchi asarlarida aks etgan aybdorlik hissi, yolg‘izlik, begonalashuv, qo‘rquv, ichki ziddiyat, xavotir va mavjudlikning absurdligi kabi psixologik muammolar yoritiladi. Shuningdek, Frans Kafka ijodini talqin qilishda Zigmund Freyd, Maks Brod, Erich Fromm hamda Tomas Antsning ilmiy qarashlari tahlil etilgan. Maqolada Kafka asarlarining kitobxon ongiga ta’siri, o‘qish jarayonining psixolingvistik jihatlari hamda matnni emotsional va kognitiv idrok etish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Kafka ijodi psixologiya, psixolingvistika va adabiyotshunoslikning kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab badiiy hodisa ekanligini hamda uning asarlari inson ruhiyati va jamiyat bilan munosabatlarini o‘rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** psixologiya, psixolingvistika, o‘qish jarayoni, begonalashuv, aybdorlik hissi, ichki ziddiyat, qo‘rquv, kognitiv jarayonlar.

**Abstract:** This article examines the psychological and psycholinguistic features of the works of Franz Kafka, one of the most influential German writers of the twentieth century. The study focuses on psychological themes reflected in Kafka’s writings, including guilt, loneliness, alienation, fear, inner conflict, anxiety, and the absurdity of existence. The theoretical perspectives of Sigmund Freud, Max Brod, Erich Fromm, and Thomas Anz are analyzed as important approaches to interpreting Kafka’s literary heritage. Particular attention is paid to the influence of Kafka’s texts on readers’ consciousness, the psycholinguistic aspects of the reading process, and the emotional and cognitive mechanisms involved in text perception. The findings demonstrate that Kafka’s works constitute a complex literary phenomenon situated at the intersection of psychology, psycholinguistics, and literary studies, providing valuable insights into human consciousness, personality, and social relationships.

**Key words:** psychology, psycholinguistics, reading process, alienation, guilt, inner conflict, fear, cognitive processes.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются психологические и психолингвистические особенности творчества Франца Кафки - одного из наиболее известных немецких писателей XX века. Анализируются основные психологические проблемы, отражённые в произведениях автора, такие как чувство вины, одиночество, отчуждение личности, страх, внутренние конфликты, тревожность и абсурдность человеческого существования. Особое внимание уделяется научным взглядам Зигмунда Фрейда, Макса Брода, Эриха Фромма и Томаса Анца, внесших значительный вклад в изучение творчества Кафки. В статье исследуются психолингвистические аспекты восприятия художественного текста, влияние произведений Кафки на сознание читателя, а также эмоциональные и когнитивные механизмы понимания текста. Результаты исследования показывают, что творчество Франца Кафки представляет собой сложное художественное явление, находящееся на стыке литературоведения, психологии и психолингвистики, и обладает важным научно-практическим значением для изучения человеческой психики, сознания и взаимоотношений личности с обществом.

**Ключевые слова:** психология, психолингвистика, процесс чтения, отчуждение, чувство вины, внутренний конфликт, страх, когнитивные процессы.

## KIRISH

XX asrning mashhur yozuvchisi Frans Kafka o‘zining psixologik xarakterga ega asarlari bilan kitobxonlar mehrini qozongan. Aslida u 1883-yil 3-iyulda, o‘sha paytda Avstriya-Vengriya imperiyasi tarkibiga kirgan va umrining katta qismini shu yerda o‘tkazgan Praga shahrida tavallud topgan. Uning ijodi iztirob, ichki ziddiyat va ruhiy keskinlik bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, asarlarida yozuvchi yashagan davrga xos turli qarashlar hamda g‘oyalar o‘z aksini topgan. Shu sababli F. Kafka realizm an’analaridan chekinib, yangi badiiy yo‘nalishlarni shakllantirgan ijodkorlar orasida alohida mavqega ega.

Albatta, yozuvchining asarlarida hayotdagi ayrim obyektiv jarayon va hodisalar hamda voqelikning muhim qarama-qarshiliklari oʻz ifodasini topgan. Ammo F. Kafka oʻz zamondoshlaridan farqli ravishda bunday asarlarda muallif shaxsiyati dunyoning aniq tasvirini ortda qoldirmaydi, chunki ular badiiy obrazni bevosita hayotiy voqelikka tayangan holda yaratadilar. Kafka ijodida esa yozuvchining shaxsiy his-tuygʻulari, ichki va koʻpincha anglab boʻlmaydigan kechinmalari bilan san'at olami oʻrtasidagi chegara deyarli yoʻqdek tuyuladi.

Kafka asarlari kitobxonda uning ichki kechinmalari va tasavvurlarining uzviy davomidek taassurot uygʻotadi hamda ular goʻyoki yozuvchining ruhiy holatini tasvirlash va ifodalash vazifasini bajaradi. Muallif asarlarida xavotir, noaniqlik, qoʻrquv va dahshatli tasavvurlar oʻz aksini topadi.

Mazkur maqolada Frans Kafkaning asarlarining asosiy mohiyati hamda ularni mutolaa qilishning oʻziga xos psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunga kelib, umuman nutqni idrok qilish, psixologik va kognitiv jarayonlar olimlarning diqqat markazida boʻlib kelmoqda. Mavzuni oʻrganishda xorijiy va oʻzbek olimlaridan Z. Freyd, M. Brod, E. Fromm, T. Ants, L. S. Vigotskiy, V. P. Gluxov, Z. I. Klichnikova, A. A. Leontyev, I. A. Zimnaya, J. Jalolov, Sh. Atayev va boshqalarning psixologiya, psixolingvistika hamda kognitiv tilshunoslikka oid ilmiy asarlari oʻrganildi. Ularda nutq faoliyati turlari, oʻqish va yozuv jarayonlari umumiy planda tadqiq etilgan boʻlib, biz ushbu mavzuni nemis yozuvchisi Frans Kafka asarlari misolida tahlil qilamiz. Biz uchun bir tarafdan Kafkaning yozishga boʻlgan ishtiyoqi, boshqa tarafdan esa kitobxonning yozuvchi asarlarini oʻqishga boʻlgan qiziqishi muhimdir. Kafka yozuv orqali, kitobxon esa oʻqish orqali oʻz muammolarini unutishga harakat qilgan.

Dastlab, bevosita yozuvchining asarlaridagi psixologik muammolar ustida ilmiy izlanishlar olib borgan xorijlik olimlarning qarashlariga toʻxtalib oʻtamiz. Frans Kafka asarlarining psixologik muammolari ustida koʻplab adabiyotshunos, faylasuf va ruhshunos olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Frans Kafkaning zamondoshi boʻlgan avstriyalik shifokor Zigmund Freyd (Sigmund Freud) yozuvchi ijodini bevosita oʻrganmagan. Biroq Freydning psixoanalitik ta'limotiga oid ichki kechinmalar Kafka ijodida, xususan, uning qahramonlarining qoʻrquv, ichki ziddiyat, aybdorlik hissi va shaxsning jamiyat oldida begonalashuvi kabi psixologik muammolarida yaqqol namoyon boʻladi. Ya'ni Freyd ta'limoti Kafka ijodida oʻz ifodasini topgan va amaliy mazmun kasb etgan. Freyd ta'limoti Kafka qahramonlarining ruhiy holati va ichki ziddiyatlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qilgan, desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Freydning asosiy gʻoyalaridan biri shundan iboratki, koʻplab psixologik muammolar insonning yoshlik davridagi kechinmalari bilan bogʻliqdir.

Frans Kafka ijodini batafsil tadqiq etgan olimlardan biri Maks Brod boʻlib, u Kafka zamondoshi boʻlish bilan birga, uning yaqin doʻsti ham boʻlgan. Maks Brod 1884-yilda, Kafka kabi oʻsha davrdagi Avstriya-Vengriya imperiyasi hududida tavallud topgan va asosan nemis tilida ijod qilgan yozuvchi, faylasuf hamda dramaturg sifatida tanilgan. Maks Brod Kafka hayoti va ijodiga oid biografik asar yozgan va unda yozuvchining ijodidagi psixologik jihatlarni yoritib bergan. Ya'ni u yozuvchining ichki ziddiyatlari, yolgʻizligi va ruhiy kechinmalarini tahlil qilgan. Ushbu kitob 1937-yilda Pragada "Franz Kafka: Eine Biographie" nomi bilan ilk bor nashr etilgan. Mazkur asar Kafka hayoti va ijodini oʻrganishdagi dastlabki fundamental manbalardan biri boʻlgan va Kafka ijodini tadqiq etuvchilar uchun muhim manba vazifasini bajargan. Shuningdek, kitobda muallif Kafka bilan boʻlgan shaxsiy muloqotlari, xotiralari va yozuvchining maktublaridan foydalanib, uning murakkab shaxsiyatini hamda ijodining psixologik va falsafiy mohiyatini ochib berishga intilgan. Shu sababli ushbu asar bugungi kunda ham Kafka hayoti va ijodini tadqiq etishda muhim manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi [6].

Nemis faylasufi va ruhshunosi Erich Fromm 1900-yilda oʻsha paytdagi Prussiyaning Frankfurt-am-Mayn shahrida pravoslav yahudiy oilasida tavallud topgan va oʻz davrida neofreydizm hamda freyd-marksizm asoschilaridan biri boʻlgan. Ruhshunos olim zamonaviy jamiyatda insonning begonalashuvi muammosi va uning kelib chiqish sabablarini tahlil qilgan.

Erich Frommning nazariy qarashlari Frans Kafka asarlarini psixologik va ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishda muhim metodologik manba sifatida e'tirof etiladi. Xususan, Kafka asarlarida uchraydigan begonalashuv, yolgʻizlik, qoʻrquv va shaxsning jamiyat bilan ziddiyatli munosabatlari kabi mavzularni Frommning gʻoyalari yordamida chuqurroq talqin qilish mumkin. Shu sababli Frommning ilmiy merosi Kafka ijodini tadqiq etishda muhim nazariy manbalardan biri hisoblanadi [5].

Albatta, Kafka ijodi yillar oʻtishi bilan hamon adabiyotshunoslar va ruhshunoslar tomonidan oʻrganilib kelinmoqda. Germaniyalik adabiyotshunos olim, professor Tomas Ants (Thomas Anz) 1999-yilda oʻzining "literaturkritik.de" nomli onlayn adabiy jurnaliga asos solgan boʻlib, u nemis tilidagi eng nufuzli adabiy tanqid va kitoblar sharhi platformalaridan biri sifatida tanilgan. Jurnalda asosan adabiyot nazariyasi va tanqidi, zamonaviy nemis adabiyoti hamda adabiyot va ruhshunoslik oʻrtasidagi bogʻliqlik masalalariga bagʻishlangan maqolalar e'lon qilinadi. Mazkur jurnalda Kafka ijodi va uning psixologik talqiniga oid ilmiy qarashlar ham muntazam ravishda nashr etib boriladi.

МАКТАВ TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Tomas Ants Kafka ijodi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan va e'tiborli jihati shundaki, u Kafkaning asarlariga psixoanalitik yondashuv asosida bir qator ilmiy maqolalar bag'ishlagan hamda yozuvchini psixologik va adabiy nuqtayi nazardan tadqiq qilgan ko'zga ko'ringan nemis olimlaridan biri hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada o'qish nutq faoliyati turining umumnazariy muammolari hamda uning o'ziga xos psixolingvistik va lingvodidaktik xususiyatlarini aniqlash masalalari ko'rib chiqildi. Psixolingvistika nuqtayi nazaridan ta'lim oluvchilarning qiziqishlari doirasiga oid matnlarni o'qish jarayonida harfiy belgilar qanday idrok etilishi, ularning talqin qilinishi va xotirada saqlangan bilimlarning matnni tushunish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy tildagi matnlarni o'qish va tahlil qilish jarayonida induktiv hamda deduktiv metodlardan foydalanildi. Ya'ni induktiv metod yordamida muammoning umumiy qonuniyatlarini aniqlash va ularni umumlashtirishga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, deduktiv metod orqali dastlabki qoidalar asosida mavjud ma'lumotlar tahlil qilinib, yangi bilimlarni aniqlash jarayoni amalga oshirildi.

Kafka ijodi tahlili natijasida uning asarlarida aybdorlik hissi, yolg'izlik, hokimiyat va jamiyat oldidagi qo'rquv, shaxsning begonalashuvi, ichki ziddiyat, xavotir va bezovtalik, mavjudlikning absurdligi hamda shaxsiy identifikatsiya inqirozi kabi psixologik muammolar o'z ifodasini topganligini kuzatish mumkin. Aynan shu xususiyatlar Frans Kafka ijodining o'z davrida ham, uning vafotidan so'ng ham ko'plab muhokamalarga sabab bo'lgan va bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Hatto uning nomi bilan bog'liq bo'lgan "kafkaesk" tushunchasi "Duden. Nemis tilining universal lug'ati"da quyidagicha izohlanadi: kafkaesk [nach dem österreichischen Schriftsteller F. Kafka]: in der Art der Schilderungen Kafkas; auf unergründliche Weise bedrohlich. Die Geschichte hat kafkaeske Züge [7: 916].

Mazkur ta'rif o'zbek tilida quyidagi ma'noni anglatadi: Kafka uslubiga xos [avstriyalik yozuvchi F. Kafka nomi bilan atalgan]; Kafka tasvirlariga xos tarzda, tushunarsiz darajada tahdidli. Ya'ni hikoyada Kafka uslubidagi, sirli va xavotir uyg'otuvchi xususiyatlar mavjud. Shu nuqtai nazardan, "kafkaesk" tushunchasini o'zbek tiliga "kafkacha" yoki "Kafkaga xos" tarzida tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman olganda, ushbu tushuncha insonlarning ojiz holda o'tib bo'lmaydigan tizim ta'siriga duch keladigan, tushga o'xshash holatni ifodalaydi.

Aslida yozuvchining asarlari ham aynan shu mazmun bilan sug'orilgan, desak xato bo'lmaydi. Shunday ekan, ushbu maqolada F. Kafka asarlarining psixologik xususiyatlari hamda yozma nutq faoliyatining inson ongiga ta'sir etish jarayonlariga batafsil to'xtalib o'tiladi.

Yevropada Birinchi jahon urushi boshlangan davrda Kafka o'zining ichki dunyosining cho'qqisi hisoblangan "Jarayon" romanini yozishga kirishgan. Asar asosan Kafkaning Pragadagi uyida, yolg'izlikda, yarim tundan tonggacha bo'lgan vaqt oralig'ida yaratilgan. Jonli muloqot uni dahshatga solgan, ijod jarayonida esa u o'zini hamma narsaga qodir his qilgan. Ya'ni hamkasblari, oila a'zolari va hatto suyukli insoniga ayta olmagan fikrlarini yolg'izlikda yozuv orqali ifodalagan.

Kafka voqelikda emas, balki matnlar olamida yashagan. U nafaqat "Jarayon" asarida, balki butun ijodi davomida hech kim bilan baham ko'ra olmaydigan haqiqatni tasvirlashga intilgan. Natijada Kafka o'z asarlarida oila a'zolari va hamkasblari bilan bo'lisha olmagan ichki haqiqatni yozma shaklda ifodalagan.

Ijod jarayoni uning uchun nafaqat estetik faoliyat, balki ichki iztirob, qo'rquv va ruhiy ziddiyatlarni yengish vositasi ham bo'lgan. Shu ma'noda, badiiy asarlar yaratish orqali Kafka o'zining ruhiy yakkalanishi va ichki qamovidan chiqishga intilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Frans Kafka ijodining nafaqat adabiy-estetik hodisa, balki inson ruhiyati, ong jarayonlari va shaxsning jamiyat bilan munosabatlarini o'rganishda muhim psixologik manba ekanligini ko'rsatdi. Kafka asarlarining tahlili yozuvchi badiiy olamining markazida insonning ichki kechinmalari, qo'rquvlari, aybdorlik hissi, yolg'izlik, begonalashuv va mavjudlik bilan bevosita bog'liq murakkab muammolar turganligini tasdiqladi.

Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili Kafka ijodini talqin qilishda psixoanalitik, ijtimoiy-psixologik va adabiy yondashuvlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Zigmund Freydning psixoanalitik qarashlari Kafka qahramonlarining ichki ziddiyatlari va ruhiy kechinmalarini tushuntirishga xizmat qilsa, Maks Brodning biografik tadqiqotlari yozuvchining hayoti va ijodi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Erich Frommning begonalashuv nazariyasi esa Kafka asarlarida aks etgan inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Zamonaviy kafkashunoslik vakillari, jumladan, Tomas Antsning tadqiqotlari ham Kafka asarlarining psixologik talqinlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolayotganini ko'rsatadi.

Tahlillar natijasida Kafka asarlarining kitobxon ongiga kuchli psixologik ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Yozuvchi yaratgan badiiy muhit kitobxonni qahramonlarning ruhiy holati bilan hamnafas bo'lishga undaydi, natijada o'qu-

vchi matnni nafaqat mazmuniy, balki emotsional va kognitiv jihatdan ham idrok etadi. Bu esa oʻqish jarayonining psixolingvistik xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida Kafka ijodida aks etgan psixologik holatlar va badiiy tasvir vositalari keyinchalik "kafkaesk" tushunchasining shakllanishiga asos boʻlgani aniqlandi. Mazkur tushuncha insonning tushunarsiz, murakkab va tahdidli tizim qarshisidagi ojizligi, noaniqlik va ruhiy bosim holatini ifodalovchi adabiy-estetik kategoriya sifatida jahon adabiyotshunosligida mustahkam oʻrin egallagan.

Umuman olganda, Frans Kafka ijodi psixologiya, psixolingvistika va adabiyotshunoslikning kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab badiiy hodisa boʻlib, uning asarlari inson ruhiyati, ong faoliyati va shaxsning ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini tadqiq etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bois Kafka asarlarini psixologik va psixolingvistik jihatdan oʻrganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki zamonaviy tilshunoslik va kognitiv fanlar uchun ham dolzarb ilmiy yoʻnalishlardan biri boʻlib qolmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy tilni oʻrganuvchilar tomonidan yozma nutq malakalarini shakllantirish, Frans Kafka ijodining psixologik va psixolingvistik xususiyatlarini tahlil qilish hamda yozuvchi asarlarining inson ruhiyati va oʻquvchi ongiga taʼsir etish mexanizmlarini oʻrganish ushbu tadqiqotning asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻldi. Natijalar shuni koʻrsatdiki, Kafka asarlarida aybdorlik hissi, yolgʻizlik, begonalashuv, qoʻrquv, ichki ziddiyat, xavotir va mavjudlikning maʼnosi bilan bogʻliq muammolar markaziy oʻrin egallaydi. Ushbu psixologik jarayonlar yozuvchi tomonidan chuqur badiiy obrazlar va ramziy tasvirlar orqali ifodalangan.

Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili Kafka ijodini oʻrganishda psixoanalitik, biografik va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarning katta ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatdi. Xususan, Zigmund Freydning psixoanalitik qarashlari, Maks Brodning biografik tadqiqotlari hamda Erich Frommning begonalashuv nazariyasi Kafka asarlarining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida Kafka asarlarining psixolingvistik jihatlari ham oʻz tasdigʻini topdi. Yozuvchi yaratgan badiiy muhit kitobxonni matn mazmunini nafaqat mantiqiy, balki hissiy va kognitiv jihatdan ham idrok etishga undaydi. Natijada kitobxon qahramonlarning ruhiy holati bilan hamnafas boʻlib, matnda ifodalangan psixologik kechinmalarni chuqur his etadi. Shu bois Kafka asarlari oʻqish jarayonida fikrlash, tasavvur, emotsional qabul qilish va interpretatsiya kabi psixik jarayonlarning faollashuvi kuzatiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Kafka ijodida aks etgan psixologik holatlar va badiiy tasvir vositalari jahon adabiyotshunosligida "kafkaesk" tushunchasining shakllanishiga asos boʻlganligini koʻrsatdi. Mazkur tushuncha bugungi kunda ham insonning murakkab va tushunarsiz tizimlar qarshisidagi ojizligi hamda ruhiy iztiroblarini ifodalovchi muhim adabiy-estetik kategoriya sifatida qoʻllanilmoqda.

Tahlilga tortilgan manbalar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb topildi:

*Birinchidan,* Frans Kafka asarlarini adabiyotshunoslik, psixologiya va psixolingvistika fanlari kesimida kompleks oʻrganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish va ommalashtirish lozim.

*Ikkinchidan,* oliy taʼlim muassasalarida jahon adabiyoti, adabiyot nazariyasi va psixologiya fanlarini oʻqitishda Kafka asarlaridan amaliy material sifatida foydalanishni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir.

*Uchinchidan,* yozuvchining asarlarida aks etgan begonalashuv, shaxsning jamiyat bilan munosabatlari va ruhiy ziddiyatlar kabi masalalarni zamonaviy ijtimoiy-psixologik nazariyalar asosida qayta tahlil qilish zarur.

*Toʻrtinchidan,* Kafka asarlarining oʻzbek tiliga tarjimalarini adabiy, lingvistik va psixologik jihatdan qiyosiy oʻrganish hamda ularning kitobxon tomonidan qabul qilinish xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Nihoyat, "kafkaesk" fenomenining adabiyot, madaniyat, falsafa va zamonaviy ijtimoiy jarayonlardagi namoyon boʻlish shakllarini oʻrganishga qaratilgan fanlararo tadqiqotlarni olib borish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Выготский Л. С. Мышление и речь : психологические исследования. - М.: Государственное социально-экономическое издательство, 1934. - 324 с.
2. Зимняя И. А. Психология обучения неродному языку. - М.: Русский язык, 1989. - 223 с.
3. Клычникова З. И. Психологические особенности обучения чтению на иностранном языке. - М.: Просвещение, 1983. - 207 с.
4. Рубинштейн С. Л. О мышлении и путях его исследования. - М.: Изд-во АН СССР, 1958. - 147 с.
5. Фромм Э. Забытый язык / пер. с англ. А. Александровой. - М.: АСТ, 2017. - 320 с.
6. Brod M. Franz Kafka: Eine Biographie (Erinnerungen und Dokumente). - Prag: Heinrich Mercy Sohn, 1937. - 288 S.
7. Duden. Deutsches Universalwörterbuch. 6., überarb. und erw. Aufl. - Mannheim: Bibliographisches Institut AG, 2007. - 2016 S.
8. Jalolov J. Chet til oʻqitish metodikasi. - Toshkent: Oʻqituvchi, 2012. - 432 b.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №6(1)**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.